



# IMOM AL-BUXORIY



***(810-870)***

- 
- **Imom al-Buxoriyning asl ismi – Muhammad,**
  - **810-yilning 21-iyunida Buxoro shahrida tug'ildi.**

# OTASI

## **Ismoil Buxoriy**

Muhaddis olim edi. Goho tijorat bilan shug'ullanardi. Lekin juda halol, xudojo'y odam edi. Zamondoshlari, uning xonadoniga mehnatsiz topilgan biror dirham ham pul kirgan emas edi, deb yozadilar.

# ONASI

Onasi ham diyonatli, qalbi Allohda, qo‘li duoda yuruvchi pokiza ayol bo‘lgan. Aytishlaricha, Muhammadning ko‘zi yoshligida jarohatlanib, ojizlanib qoladi. Tabiblarga qaratadilar, foyda bermaydi. Bir kuni ona tush ko‘radi. Ibrohim alayhissalom unga qarata: «Ey volida, duolaring sharofatidan Olloh o‘g‘lingga ko‘rish ne‘matini qaytardi!» — deb xitob qilayotganmish. Cho‘chib uyg‘onib, o‘g‘lidan xabar olibdi. Muhammadning ko‘z-qaroqlarida nur o‘ynardi.

# IMOM AL-BUXORIY – MUHADDIS OLIM

## MUHADDIS

«hadis biluvchi», «hadis aytuvchi»  
degani.

## HADIS

Payg‘ambarimizning so‘zlari.

## IMOM

Namoz jamoa bo‘lib o‘qilganda, oldindagi boshlab boruvchi imom bo‘ladi. Demak, Buxoriy barcha muhaddislarning eng oldingi qatorida turgan, hammalari tomonidan tan olingan ustozidir.

# «AL-JOME' AS-SAHIH»






## «AL-JOME' AS-SAHIH»

- **Ma'nosini: “Ishonchli to'plam”.**
- **Kitobi ustida 16 yil ishlangan.**
- **Unga kiritilgan 7397 hadis 600 ming hadisning ichidan saralanib olingan.**
- **Hadislarni «mingdan ortiq ishonchli ulamodan hadis yozib oldi».**

# DIQQAT!





Kitob arab tili bitilgan  
va 2 kitobdan iborat.



O`zbekcha tarjimasi  
4 kitobdan iborat.

# O`ZBEKCHA TARJIMASI



- Imom al-Buxoriy hayotining so‘nggi yillari Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida kechdi. U **870-yilning 31-avgustida** vafot etdi. Qabri o‘sha yerda, hozirgi **Samarqand viloyati Payariq tumani Xartang** qishlog‘idadir.







Prezidentimiz tashabbusi bilan qayta tiklangan Imom al-Buxoriy majmuasi doimo e'tiborda!



# HADISLARDAN NAMUNALAR




# SALOM BERISH ISLOM AMALLARIDANDIR

Sahoba Ammor aytganlar: «Uchta xislatni o‘zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo‘lg‘aydir:

● insofli va adolatli bo‘lmoq;

barchaga salom bermoq;

● kambag‘alligida ham sadaqa berib turmoq.





## BILIMINGIZNI SINANG!

Jadvalning chap tarafidagi soʻz va raqamlarni oʻng tomondagi katakka izohlab yozing

<u>Muhaddis</u>	
810-yil, 21-iyun	
16 <u>yil</u>	
7397	
<u>Ismoil Buxoriy</u>	
« <u>Roviy</u> »	
« <u>Kalomulloh</u> »	
<u>Ishonchli toʻplam</u>	
<u>Xolid ibn Ahmad</u>	
870-yilning 31-avgust	
<u>Xartang qishlogʻi</u>	



# ***ʻSavollarga javob bering.***

- 1. “Muhaddis” soʻzining maʼnosi?
- 2. Qurʼoni Karimdan keyingi eng muhim qoʻllanma?
- 3. “Sahih va nosahih” soʻzlarining maʼnosi?
- 4. Hadislar kimning soʻzlari va kimlardan yigʻilgan?
- 5. Roviylar deb kimlar aytilgan?
- 6. Sahobalar kimlar?
- 7. Tobeinlar kimlar
- 8. Hadislar necha qismdan iborat boʻlgan?